



## SEGMENTAR HISOBOTNI TUZISHDAGI ASOSIY TAMOYILLAR

**Alikulov G'.**

*Toshkent moliya instituti  
Mustaqil tadqiqotchisi (PhD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning segmentar hisobotini tuzish jarayonida muhim o'ringa ega bo'lgan asosiy tamoyillar masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *boshqaruv hisobi, segmentar hisobot, segment, tamoyil, ishonchlilik, aniqlilik, betaraflik, qulaylik.*

Hozirgi vaqtda amaliyotda boshqaruv jarayonida segmentar hisobotni shakllantirish masalalari asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida amalga oshiriladi, shu sababli mazkur hisobotlar iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada ochib berilmagan. Shu bilan birgalikda, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda mavjud alohida bo'linmalari (segmentlari) faoliyat jarayonining borishi va ular bo'yicha dastlabki tezkor natijalar to'g'risidagi tizimli ma'lumotlar olish muhimdir, chunki olingan natijalar asosida ularning faoliyatini tahlil qilish va baholash mumkin bo'ladi.

Boshqaruv jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar segmentlari bo'yicha segmentar hisobotni tuzish mustaqil ahamiyatga ega va kamida uchta maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirilishi kerak:


1) xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruvida tahlil jarayonini va unda tarkibida faoliyat yurituvchi tarkibiy bo'linmalar faoliyati samaradorligini axborot bilan ta'minlash;

2) tashqi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish, uning daromadlari va xarajatlarini baholashda yordam berish;

3) rahbar xodimlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot bilan ta'minlash.

Shunday qilib, boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirish uchun har bir segmentning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining yakuniy natijalariga qo'shgan hissasini aniq va to'g'ri baholashda tutgan o'rnini oshiradi. Bunday baholash uchun asos bo'lib xo'jalik yurituvchi subyektlarning segmentar hisobotida aks etgan ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Mazkur ma'lumotlarni olish uchun esa segmentar hisobotini ishlab chiqish jarayoni muhim hisoblanadi. Mazkur jarayon esa o'z o'rnida ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshirilishi zarur.

Biroq, adabiyotlarda segmentar hisobotini tuzish tamoyillari deyarli ochib berilmagan. Bizning fikrimizcha segmentar hisobotni shakllantirish jarayonida muhim bo'lgan asosiy tamoyillarni quyidagilar (1-shakl):





### 1-shakl. Segmentar hisobotni tuzishdagi asosiy tamoyillar

Segmentar hisobotda aks etadigan ma'lumotlar asosida olinadigan natija eng avvalo aniq bir maqsadni ko'zlagan bo'lishi kerak bu esa **maqsadlilik** tamoyili orqali belgilab beriladi.

Boshqaruv jarayonida segmentar hisobotlar zudlik bilan qaror qabul qilishni talab qiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va imkon qadar segmentar hisobotlarni tezroq taqdim etilishiga zaruratni keltirib chiqaradi. Bunda hisobotning mazmuni va maqsadlari segmentar hisobotni tuzishning **samaradorlik** tamoyilini belgilab beriladi.

Segmentar hisobot ma'lumotlari shunday sistemalashtirilgan bo'lishi kerakki, boshqaruv rahbariyati tezda eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishi zarur. Bunda hisobotda aks etgan ma'lumotlarning **aniqliligi** va **ishonchliliigi** muhim hisoblanadi.

Segmentar hisobot xo'jalik segmentlar faoliyatida ma'um bir ko'rsatkichlarni **taqqoslash** imkoniyatini ham ta'minlashi kerak.


**Betaraflilik** tamoyili shundan iboratki, segmentar hisobot boshqaruv qarorlarini qabul qilish vositasi sifatida shaxsiy imtiyozlarni ko'rsatish uchun ishlatilmasligi kerak.

Segmentar hisobotni tuzish qoidalarini asoslashda asosiy dalil aks etirilgan ko'rsatkichlarning foydaliligi hisoblanadi. Segmentar hisoboti nafaqat xo'jalik yurituvchi subyekt segmentlari faoliyatining haqiqiy ko'rsatkichlarini, balki haqiqiy ko'rsatkichlarning rejalashtirilganidan chetga chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Segmentar hisobotni shakllantirishning **qulaylilik** tamoyili hisobotdagi chetlanishlarni boshqarish va foydaning ortishi omillarini yoki yo'qotish sabablarini tezda aniqlash imkonini beradi.

### Xulosa

Segmentar hisobot xo'jalik yurituvchi subyektning muayyan segmenti faoliyatini baholash va mazkur segment bo'yicha turli boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish imkonini beradi.

Shunday qilib segmentar hisobotni tayyorlash va taqdim etishning yuqoridagi umumiy tamoyillariga qo'shimcha ravishda, ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risida hisobot berishda uning xususiyatlarini, imkoniyatlarini va unin boshqaruv





xodimlari tomonidan ko'zda tutilgan maqsadlarini hisobga olishi kerak. Hisobotni berish muddati, hisobotlarning to'g'riligi va aniqliligi boshqaruvning ko'lami va maqsadlariga bog'liq bo'lishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 yil. 263 bet
2. Pardayev A.X. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. T.: Akademiya, 2007 yil. 176 bet.
3. Runte M. «The Quality of Segmental Reporting and its Relationship with Idiosyncratic Returns Volatility». 2018 yil. 88 bet
4. Kondrakov-Endovitskiy D.A., Sokolov A.A. «Стратегический анализ и моделирование развития организации с использованием информационной системы сегментарного учета». Экономический анализ: теория и практика, 2005 yil. №3, 2-6 betlar
5. Rametov A.X. «Модели построения сегментарной отчетности организации в управленческом учете». Вухгалтерия hisobi, 2008 yil. №4, 69-71 betlar.

